

KASB-HUNAR MAKTABLARIDA MAXSUS FANLAR O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Karimova Dilrabo Nematullayevna

**Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 2-son
kasb-hunar maktabi Maxsus fanlar o'qituvchisi.**

Maxsus fanlar kafedra mudiri

Annotatsiya

Mazkur maqolada kasb-hunar maktablari o'quv jarayonida maxsus fanlarni o'qitishning intensiv usullari va yo'llari bayon qilingan bo'lib, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning amaliy jihatlari tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol usul, metodika, kasb, mutaxassis, tarbiyalovchi vazifa.

ROLE OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING SPECIAL SUBJECTS IN VOCATIONAL SCHOOLS

Annatation

This article describes intensive methods and ways of teaching special subjects in the educational process of vocational schools, and analyzes the practical aspects of using modern pedagogical technologies in the educational process.

Key words: Interactive method, methodology, profession, specialist, educational task.

Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi assosiy figuraga aylanadi.

O'zbekistonni iqtisodiy va ma'naviy mustaqillikka erishgan bir paytda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida kasb-hunar maktablar oldidagi muhim vazifalardan biri jamiyatimiz ehtiyojlaridan kelib chiqib bilim darajasi jahon standartlariga mos o'qimishli madaniyatlari sharqona odob axloqqa ega, ishbilarmon, ijodiy va mantiqiy tafakkur egasi bo'lgan yoshlarni kamolotga yetkazishdir. Ta'lif jarayonini takomillashtirish masalasini to'g'ri anglash uchun uni tashkil etishning shart-sharoitlarini ko'rib chiqish zarur.

Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi - o‘quv jarayonining zamonaviy vazifalaridan kelib chiqib, uning asosiy maqsadi- iqtisodiy nazariyalarni bilishga bo‘lgan pedagogik jarayonni boshqarishning umumiyligi tushuncha va elementlarini qo‘llashni talabalarga o‘rgatish, o‘quv jarayonining asosiy shakllarida (seminar, mustaqil ish, bilimlarni tekshirish) kasb-hunar maktab o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini uslubiy yo‘llar yordamida faollashtirish, o‘quvchilarga o‘quv mashg‘ulotlarining ishlanmalarni tayyorlashga yordam berishdan iborat.

O‘qitish o‘zining asosiy (didaktik) vazifasidan tashqari boshqa vazifalarni bajaradi:

Rivojlantiruvchi vazifani mohiyati- o‘qitish jarayonida shaxsning aqliy, hissiy va irodaviy rivojlanishi, bilishga bo‘lgan intilishlarini va ijodiy faollikni shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlashdan iborat bo‘ladi. Rivojlantiruvchi vazifa rivojlantiruvchi prinsipga asoslanib, uning mohiyati, o‘qitish jarayonini shunday murakkab darajada tuzish kerakki, bunda talabandan ham aqliy ham irodaviy kuchlarni sarf qilsin. O‘quv jarayoni talabada qoniqish, bilish quvonchini, hayron bo‘lish, ya’ni u nimanidir bajara olishi hissini uyg‘otishi zarur. Shu bois o‘quv materiali juda ham sodda bo‘lmasligi kerak va talaba faqat uni qaytarib qolmasdan, balki bilimlar asosida topshiriqlar zanjirini yecha olishi kerak.

Tarbiyalovchi vazifa –o‘qitishni tarbiyalash prinsipiga asoslanadi. O‘qitish va tarbiyalash jarayonlari uzviy bog‘liqlikda bo‘ladi. Ularning umumiyligi maqsadlari- bo‘lg‘usi mutaxassilikning mohiyatini va ijtimoiy muhimligini tushunuvchan, o‘z mehnatining natijalariga kasbiy ma’suliyatga ega bo‘lgan mutaxassisni shakllantirishdan iborat.

O‘quv jarayonida tarbiya o‘qitish mazmunini amalga oshirish yo‘li orqali, uni to‘g‘ri tashkillashtirish va zarur usullarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Professional ta’lim muassasasi o‘qituvchisi o‘zining bilimi, o‘zining tutishi, ishga bo‘lgan munosati o‘quv faniga, mutaxassislikka va mehnat faoliyatiga, hayotga bo‘lgan ayrim munosabatni aniqlab beradi. O‘qituvchini ta’siri ko‘gina tarbiyalanuvchilar uchun o‘rnak bo‘ladi, shuningdek shunday yutuqlarga yo‘naltirilgan shaxsiy intilishlarini, ular o‘z o‘qituvchilarida ko‘radilar.

Ta’lim berish vazifalarining yana bir yo‘li bu mustaqil o‘qish hisoblanib, bunda talabalarda mustaqil o‘qish uchun ularda qiziqishni uyg‘otish, bilish ehtiyojini paydo qilishda ularga yordam berish, mustaqil aqliy mehnatning ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo‘ladi.

Kasb – bu mehnat faoliyatining barqaror turi bo‘lib, u nafaqat aniq bilim va ko‘nikmalarni bo‘lishini talab qilmay, balki bir xil bo‘lgan umum kasbiy bilimlarni ham bo‘lishini talab qiladi.

Mutaxassis – mavjud kasb doirasidagi aniq mehnat faoliyatining aniqlashtirilganligi.

Umumiylar shaxsni kasbiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan, kasbiy ta’lim, tarbiya, ta’lim berish bilan birlashtirilgan amalga oshiriladigan kasbiy mustaqil o‘qish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini o‘qitish murakkab jarayon, bo‘lg‘usi mutaxassisni kasbiy shakllanishini bildiradi.

Ijtimoiy pedagogik shart – sharoitlarning vujudga kelishi quyidagi omillarga bog‘liq:

- o‘qituvchining didaktika va tarbiya nazariyasini o‘zlashtirganlik va amalda qo‘llay olish darajasiga;

- ilmiy va metodik jihatdan mukammal ishlangan darslikning mavjudligiga

- fan kabinetining jihozlanish darajasiga;

- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmatga asoslangan yaxshi munosabat va qulay psixologik sharoitning yaratilganligiga;

Professional ta’limi tizimi pedagog kadrlarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining mohiyati, turlari, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarning qiёsiy tavsifi, ularni tanlash mezonlari va amalga tadbiq etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishdan iborat.

Didaktik o‘yinli darslar (syujetli – rolli – o‘yinli, dars, ijodiy o‘yinli dars, ishbilarmonlar o‘yini darsi; konferentsiya darsi o‘yin – mashqli dars) didaktikada leksiya, seminar, muammoli, konsultatsiya, sinov, darslarning mohiyati, didaktik maqsadi, o‘tkazish usuli, mazkur darslarga quyiladigan didaktik maqsadi, o‘tkazish

usuli, mazkur darslarga quyiladigan didaktik talablar ishlabchiqilib, maktab amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. Shunga ko'ra mazkur darslar ta'limning an'anaviy shakllari deb yuritiladi. Munozarali va didaktik o'yinli darslarga quyiladigan didaktik talablar, ta'lim prinsiplari, didaktik maqsadi, o'tkazish usuli mohiyati unda o'qituvchi va o'quvchilarning ijodkorligini oshirishga oid fikrlar didaktikaga oid adabiyotlarda yetarlicha yoritilmaganligi sababli, amaliyotda juda kam foydalaniladi. Shu sababli mazkur jarayonni yangi pedagogik texnologiya usullari orqali o'rganishni maqsadga muvofiq deb topdik. Shunday qilib o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakalar bilan bir qatorda ijodiy faoliyat tajribalari va borliqqa hissiy -qadriy munosabatni tarkib toptirish:

O'quvchilarning bilish faoliyati va ijodkorligi o'qituvchining tayyor axborotini qabul qilishga qaratilmasdan, balki ta'limning ob'ektiv qonuniyatlariga amal qilgan, ta'lim mazmunining to'quvchilar tomonidan o'zlashtirish usulining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishni va o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma malakalardan mustaqil va ijodiy foydalanib, mazkur muammolarni hal etish;

O'qituvchidan har bir mavzu bo'yicha didaktik kartochkalar, topshiriqlar masalalar tayyorlab, turli vositalar yordamida o'z o'rnila va samarali foydalanib o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim ko'nikma va malakalarni tanish odatiy va yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash uchun imkon yaratish. O'quvchilarning ta'lim mazmunining tarkibiy qismlarini o'zgartirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan va didaktikaning keyingi yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlari. O'qituvchi o'z bilimi kasb mahoratini takomillashtirib, ta'lim jarayoniga yondashish.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarning prinsiplari: Insonparvarlik-ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'ravonlikdan to'la voz kechish, hamkorlik ya'ni pedagog va o'quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;

Erkin tarbiyalash-ya’ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta’sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari-shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo‘ladi:

Pedagogik jarayonda shaxs ob’ekt emas, sub’ekt hisoblanadi, har bir o‘quvchi qobiliyat egasi, ko‘pchiligi esa iste’dod egasi hisoblanadi, yuqori etnik qadriyatlar-saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi. Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Pedagog va o‘quvchi huquqlarini tenglashtirish, o‘quvchining erkin tanlab olish huquqi, xatoga yo‘l qo‘yish huquqi, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi, pedagog va tahsil oluvchi munosabatining asosi ta’qiqlamaslik, boshqarish emas, birgalikda boshqarish. Majburlash emas-ishontirish, buyurish emas-tashkil etish; chegaralash emas-erkin tanlab olishga imkon berishdir.

Xulosa qilganda, “maxsus fanlar”dan darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko‘ra ko‘proq amaliyotga e’tibor berish hamda o‘quvchilarga tayyor o‘quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma’lum darajada voz kechish talab qilinadi. Maxsus fan darslarida ko‘proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o‘quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o‘lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o‘rnida foydalanish talab etiladi. O‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.